

AMIR TEMUR SALTANATIDA XAVFSIZLIK XIZMATI VA HARBIY SOHA

Boytov rayev Dilshod Erkin o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti.

boyturayev09@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15448667>

Annotatsiya. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati qay tarzda tashkil qilishdagi tahlil qilinadi. Maqolada hazrat Sohibqironning biz bilmagan va eshitmagan qirralarini ko'ramiz. Uning buyukligi namoyon bo'lмаган jihatlari, yoritilmagan yoki qalam urilmagan xislatlari haqida ma'lumotlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Xavfsizlik kengashi, harbiy xavfsizlik, qurultoy, kengash, navkar, qo'shin, sohibqiron.

“G'anim lashkarini yengish qo'shining ko'pligidan, mag 'lub bo'lish esa siphohning kamligidan bo'lmaydi. Balki g'olib bo'lmoqlik Tangrining madadi va bandasining tadbiri bilandir”

Amir Temur

KIRISH

Amir Temur davlat boshqaruvida qurultoy, kengash kabi ijtimoiy-siyosiy institutlarga tayanib, ularning faoliyatiga katta e'tibor qaratgan. Xususan, mamlakat xavfsizlik tizimining oliy organi hisoblangan Xavfsizlik kengashi davlatni boshqarish, ichki, tashqi va harbiy xavfsizlik siyosatini shakllantirish bilan shug'ullangan. Bu tuzilma zimmasiga davlat suverenitetini saqlash, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, davlat chegaralarini himoya qilish kabi vazifalar ham yuklatilgan. Bundan tashqari, kengash mamlakatda ro'y beradigan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, ularning sabablarini o'rganish kabi muhim ishlarni ham bajargan. Sohibqiron vafotidan keyin olti asrdan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa ham uning hayoti va faoliyati haqida Sharq va G'arb olimlari yuzlab asarlar yaratishdi. U haqida hamon yozishmoqda, talay taddiqotlar va yangiliklar yaratilmoqda. Ulardan biz Amir Temur siyosining yangi va yangi qirralarini ko'rmoqdamiz.

Amir Temur xavfsizlikni ta'minlash maqsadida mamlakat atrofida ro'y berayotgan voqealardan ogoh bo'lgan, hamda xavfni o'z vaqtida bartaraf etish masalasiga jiddiy e'tibor bergen va bunga erishgan. Qo'shni davlatlar to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni Amir Temur 1000 kishilik yengil bo'linmalar vositasida to'plagan. Bu bo'linmalar suvsiz cho'llarda tuyu minib, boshqa joylarda esa otliq va piyoda holda harakat qilganlar. Ular tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga qarab Amir Temur tegishli chora tadbirlarni ko'rgan. Shu bois ham savdo-sotiqqa, ayniqsa, xorijiy mamlakatlar bilan olib boriladigan savdo-sotiqqa, uning rivojiga alohida e'tibor qaratgan. "Tuzuklar"da bu haqida mana bularni o'qiyimiz: "*Har bir mamlakatga va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular qayerga borishmasin, Xitoy, Xo'tan, Chinumochin, Hindiston, arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rum, Jazoir, Farangiston, u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfalaridan keltirishsin. O'sha mamlakatlarda yashovchi kishilarning hol-ahvoli, turish-turmushlari haqida menga xabar olib kelsinlar. Har bir mamlakat hukmdorining o'z raiyatiga qanday muomilayu munosabatda ekanligini aniqlasınlar*"¹. Buyuk ajdodimiz bundan olti asr avvalroq biror bir davlat qo'shnilarini bilan savdo aloqalari qilmasdan yoki hamkoriksiz, o'z qobig'ida rivojlana olmasligini yaxshi tushungan.

¹ A.Temur. "Temur tuzuklari". 1992. 54-bet.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA TARXIY TALQINI

Ushbu maqola uchun tadqiqotlar, ilmiy amaliy konferensiya ma'lumotlari va bir qator tarixiy kitoblar va ilmiy asoslangan manbaalardan foydalanildi. Tadqiqot davomida tahlil, taqqoslama tahlil, abstraksiylash, tarixiy hujjatlarni o'rganish va analiz-sintez metodlari qo'llanildi. Hamdam Sodiqovning "Amir temur sultanatida xavfsizlik xizmati", Pirimqul Qodirovning "Amir Temur siyomosi" nomli badiasi, Ibn Arabshohning Sohibqiron haqida bildirib o'tgan fikrlari va boshqa muhim maqolalar va asarlar tahlil qilindi.

Amir Temur xavfsizlik xizmatini yuqor saviyada tashkil etgan. Bu sohada taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning "Amir Temur siyomosi" deb nomlangan ilmiy badiasinini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Bu kitobda hali hech kim qo'l urmagan va e'tibor bermagan masalalar ilmiy teranlik va badiiy mahorat ila yechilgan. Pirimqul Qodirov tadqiqotchiga xos ziyraklik bilan bir fikrni o'rtaga tashlagan, unga qo'shilmasdan ilojimz yo'q. "Amir Temur mavzusi ummonday cheksiz"². Biz ana shu ummondan kichik bir jilg'ani tanlab oldik. U ham bo'lsa, sohibqiron yaratgan maxfiy xizmat – razvedka va kontrrazvedka masalasidir. Sohibqiron hayoti va faoliyatidagi sirli voqealar ana shu maxfiy xizmat bilan bog'liqdir. Biz uning razvedkasi va kontrrazvedkasi tuzilishi, strategiyasi va taktikasi haqida aniq ma'lumotlarga ega emasmiz. Ammo Amir Temur haqida yozilgan kitoblarda bu haqda uzuq-yuluq fikrlar berilgan.

Amir Temur davlat boshqaruvida qurultoy, kengash kabi ijtimoiy-siyosiy institutlarga tayanib, ularning faoliyatiga katta e'tibor qaratgan. Xususan, mamlakat xavfsizlik tizimining oliv organi hisoblangan Xavfsizlik kengashi davlatni boshqarish, ichki, tashqi va harbiy xavfsizlik siyosatini shakllantirish bilan shug'ullangan. Bu tuzilma zimmasiga davlat suverenitetini saqlash, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, davlat chegaralarini himoya qilish kabi vazifalar ham yuklatilgan. Bundan tashqari, kengash mamlakatda ro'y beradigan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, ularning sabablarini o'rganish kabi muhim ishlarni ham bajargan. Sohibqiron vafotidan keyin olti asrdan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa ham uning hayoti va faoliyati haqida Sharq va G'arb olimlari yuzlab asarlar yaratishdi. U haqida hamon yozishmoqda, talay tadqiqotlar va yangiliklar yaratilmoqda. Ulardan biz Amir Temur siyomosining yangi va yangi qirralarini ko'rmoqdamiz.

Amir Temur maxfiy xizmati haqida eng xolis ma'lumotlarni Sohibqironning zamondoshi Ibn Arabshoh beradi. Uning kinoya va g'arazga to'liq satrlarida Amir Temur maxfiy xizmati shaxsiy tarkibi xususida bebahlo ma'lumotlar mavjud.

—U, —deb yozadi Ibn Arabshoh, — yerlarining barcha tomonlariga o'z ayg'oqchilarini tarqatib, qolgan mulklariga esa josuslar qo'ygan edi.

Josuslarning bunisi Qohirada, Muiziyada bo'lsa, unisi Damashqda, Shamiysoniyadagi so'fiylardan biri edi. Ulardan biri chakanfurush bo'lsa, ikkinchisi yirik savdogar, badxulq polvon va buzuqi dorboz, jafokor va hunarmand, munajjim va o'z tabiaticha ish qiladigan, gapchinoz qalandarlaru sayoq darveshlar, dengizchi mallohlaru quruqlikdagi sayyoohlar, zarofatli meshkoblar, latofatli etikdo'zlar, alvasti va xiylakor Dalla misoli firibgar kampirlar tajribasi bo'lib, talabida mag'ribu mashriqni kezgan, payiga tushgan maqsad yo'lida makru xiylada Soson va Abu Zeyddan ham o'tib ketgan, o'z hikmati bahsida Ibn Sinoni ham mulzam qilgan, ikki muxolifni bir-biriga biriktirib, ikki dushmani bir-biriga qo'shgan uddaburon kishilar edi.³

² Pirimqul Qodirov. "Amir Temur siyomosi", Toshkent "O'zbekiston" 2007. 6-bet.

³ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. "Fan" nashriyoti, 2018. 70-bet.

“Amir Temur jamiyatni toza, xalqni yuksak axloq doirasida tutishga intildi, bu xususda ham maxsus qonun va qoidalarni joriy qildi⁴”, deb yozadi akademik Bo‘riboy Ahmedov.

Darhaqiqat, Amir Temurga zamondosh tarixchilarning guvohlik berishicha, sohibqironning insonparvar g‘oyalari sultanatning barcha viloyatlarida targ‘ib qilingan va qayerdaadolatbuzilsa, xunrezliklarga yo‘l qo‘yilsa, buzg‘unchilar qonun posbonlari tomonidan jazoga tortilgan. Shuningdek, Temur davlatida ma’rifatga e’tibor kuchli bo‘lgani mamlakat boshqaruviga ijobiy ta’sir o‘tkazgan. Aynan shu jihat Temur sultanatida ijtimoiy hayotni yaxshilashga yordam bergen. Xususan, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Fasih Xavofiyning “Mujmali Fasihiy”, Xondamirning “Xulosat ul-axbor” asarlarida keltirilgan qimmatli ma’lumotlarga ko‘ra, o‘sha davr shifoxonalarida tibbiy bilim beruvchi madrasalarda bilim olgan yuzlab iste’dodli tabiblar ishlagan. Bu yetuk shifokorlar bemorni davolash bilan bir vaqtida madrasalarda ta’lim ham berish ishlarini amalga oshirgan.

NATIJALAR

Amir Temur harbiy ishlarda, davlatni boshqarishda, hayotning boshqa barcha jabhalarida shaxsiy namuna ko‘rsatishga harakat qilgan va uning buyukligi ham shundan bo‘lsa ajab emas.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, sohibqiron o‘z zamonasining tengsiz nayzabizi, qilichbozi, yoyandozi, chavandozi, kurashchisi, mergani va shaxmatchisi bo‘lgan. Negaki, buyuk jahongir bolaligidan boshlab jismoniy tarbiya va jangovarlik san’atini chuqr egallash uchun astoydil mashq qiladi. Shu boisdan uning yo‘li, ayniqsa, askarlarni jismonan baquvvatlik, chiniqqanlik, kuchlilik, tezkorlik va chaqqonlik kabi jismoniy fazilatlarni jangovar san’at bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan g‘oya va qoidalari hozirgi avlod uchun ham ibratlidir. Amir Temur har tomonlama yetuk kishilarni o‘z atrofiga jalb qilishda ulardagi aqliy va jismoniy kamolatni yuqori baholaganligi “Amir Temur o‘gitlari” kitobidagi quyidagi misralarda o‘z ifodasini topgan: “Cherik tuzib, navkar olishda uch qoidaga amal qildim: birinchidan yigitning kuch-quvvatiga, ikkinchidan qilichni o‘ynata olishiga, uchinchidan aql-zakovatiyu, kamolatiga e’tibor qildim⁵” — degan edi Jahongir.

Darhaqiqat, Amir Temurning o‘zi va undan keyingi avlodlari, ya’ni o‘g‘illari, nevaralari jahongir Ulug‘bek, Bobur, Husayn Boyqaro, Humoyun, Akbar shohlar ham qilichbozlik, ot ustida mashq qilish, suvda suzish, nayzabozlik, hattoki shaxmat o‘ynashda ham nihoyat darajada yuqori qobiliyat sohiblari bo‘lishgan. Amir Temur askarlarini jismoniy kamolatga yetkazishda jismoniy mashqlarning quyidagi turlaridan keng foydalangan: ot mashqlari, milliy kurash, nayzabozlik, qilichbozlik, kamondan o‘q otish, shaxmat o‘yini, og‘irlik (polvon tosh) ko‘tarish va boshqalar. Bundan tashqarni, u o‘z askarlariga daryo, ko‘l, botqoqlar, tezkor daryolardan kechib, suzib o‘tish sirlarni, tog‘ qoyalari, jarliklar va muzliklardan o‘tishda arqondan foydalanish sirlarini ham o‘rgatgan.

Sohibqironning askarları o‘rtasida qo‘llagan bunday nafis jismoniy mashqlari hozirgi zamon desantlari tajribasida ham uchraydi. Ayniqsa, ot sportining ko‘pkari, qo‘riq tashlash, otdan ag‘darish, qilichbozlik va ot o‘yinlar bilan birga kurash tushish, ya’ni ko‘rib tep, jang kurashi, qo‘l, oyoq va bosh bilan zarba berish, xanjar, pichoq ishlatish mashqlari keng tarqalgan bo‘lib, har bir navkar uni puxta egallagan bo‘lishi shart qilib qo‘yilgan. Sohibqiron yosh yigitlarni tarbiyalashga alohida e’tibor berar edi. Samarqanddagagi “Temur g‘ori” deb atalmish tog‘larda yigitlar harbiy-jismoniy mashqlar bajarishgan.

⁴ Ahmedov B. AmirTemur. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.1995. 191-bet.

⁵ A.Temur. “Temur tuzuklari”. 1992. 65-bet.

Navkarlar tog‘da arqonda yurish, baland qoyalarga tirmashib chiqish, toshlar bilan jang qilish, qilichbozlik, o‘z soyalari bilan mushtlashish kabi mashqlarni bajarib, jangga tayyorgarlik ko‘rishgan.

Amir Temur tartib-intizomga alohida e’tiborini qaratgan. Bu haqda “Temur tuzuklari” asarida “Uch yuz o‘n uch asl zotli, shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofimga yig‘ib birlashtirdim. Birlik ittifoqlari shunday ediki, barilar go‘yo bir tandek edilar”. Amir Temur Termiz atrofida Jete qo‘smini bilan bo‘lgan jangda son jihatidan raqibidan bir necha marta kam bo‘lgan qo‘smin bilan g‘olib chiqadi. Uning qo‘smini Jayhun daryosi yaqinidagi jang paytida talofatsiz daryodan uyoqdan-buyoqqa kechib o‘tishda dushmanni hayratda qoldiradi. Ularning otda bexato jang qilishi, jismoniy yetukligi, jang maydonida nihoyat darajada ustakorliklari va botirliklari tufayli g‘alaba qozonadilar. Amir Temur yoshlarni jismoniy yetuk qilib tarbiyalash, jangovarlik san’atini mukammal o‘rgatish bilan birga, ularga aqliy, axloqiy tarbiya berish, jangchilar o‘rtasida temir intizom o‘rnatishni qat’iy talab qilgan.

MUHOKAMA

Sohibqiron turk-mo‘g‘ul xalqlari, xususan Chingizzxon lashkari tuzilishini, ularning jang olib borishi amallarini atroflicha o‘rganib, tahlil qiladi va zarur o‘zgartirishlar kiritadi. Amir Temur barpo etgan armiyaning tuzilishi Chingizzxon tuzgan qo‘smin tizimi va tuzilishiga ma’lum darajada yaqin bo‘lsa-da, biroq quyidagi muhim jihatlari bilan farqlanar edi:

1. Chingiziylar qo‘smini yalpi majburiyat asosida harbiy xizmatga chiqariladigan xalq lashkaridan iborat bo‘lgan holda, Amir Temur armiyasi umumxalq xarakteriga ega emas edi.

2. Chingizzxon davrida qo‘smin asosini ko‘chmanchi omma tashkil qilgan edi. Amir Temur qo‘sminiga oliv bosh qo‘mondon ko‘rsatgan aniq talabga binoan chorvadorlar qatori kosibchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan mashg‘ul o‘troq aholidan ham sezilarli miqdorda askar olingan.

3. Amir Temur qo‘sminida harbiy kuchlarning asosini tashkil qiluvchi otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalardan tuzilgan qismlar ham anchagina bo‘lgan. Ma’lumki, Chingizzxon qo‘smini, zabt etilgan mamlakatlar aholisidan majburiy tartibda tuzilgan hasharni hisobga olmaganda, piyoda askarlarga ega bo‘lmagan.

4. Amir Temur Sharqda birinchilardan bo‘lib o‘z armiyasiga o‘t sochar qurol, ya’ni to‘pradni olib kirdi.

5. Sohibqirni tog‘li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qismlarni tashkil qildi.

6. Amir Temur jahon harbiy san’ati tarixida birinchi bo‘lib qo‘smini jang maydonida yetti qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etdi.

7. Amir Temur armiyasida ayollardan tuzilgan bo‘linmalar bo‘lib, ular jang chog‘i erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat na’munalari ko‘rsatgan. Tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda otliq askarlar Amir Temur armiyasining zarbdor qismi hisoblangan, og‘ir va yengil qurollar bilan qurollangan suvoriy guruhlarga bo‘lingan. Yoy, sadoq va qilich bilan yengil qurollangan otliqlar, asosan razvedka va soqchilik bilan shug‘ullangan, o‘ta zarur chog‘dagina dushman kuchlari bilan jang qilish huquqiga ega bo‘lgan. Dubulg‘a, zirh (sovut), qilich, yoy, sadoh, qalqon va nayza bilan ta’minlangan og‘ir qurolli suvoriyalar sara jangchilardan tuzilgan, g‘animning asosiy zarbasiga qarshi turgan, jang natijasini hal etishida katta rol o‘ynagan.

Yurishga jo‘nashdan oldin Amir Temur arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, beklar, amirlarni harbiy kengash-mashvaratga chorlagan.

Ayni chog‘da ulusning turli viloyat va tumanlaridan, shuningdek tobe yurtlardan qo‘sishni to‘plash uchun maxsus buyruq - tunqal e’lon qilingan. Farmon kerakli joylarga yuqori mansab egasi, bosh qo‘mondonning adyutanti-tavoch² tomonidan tezlik bilan yetkazilgan. Tavochining zimmasiga askar jamlashdan tashqari qo‘sishni qismlarining qarorgoh yoki safardagi o‘rni, jangovar tartib-yasoli hamda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishini nazorat qilish ham yuklatilgan edi. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishiga ko‘ra, Amir Temur Dashti qipchoqqa qilingan yurish (1390-1391) oldidan qo‘sinni bir yilga yetadigan oziq-ovqat, quroq-yarog‘, kiyim-kechak va boshqa safar uchun zarur ashyolar bilan ta’minlashni o‘z noiblariga buyurgan.

Har bir suvoriyga bitta yoy, 30 ta o‘q, bir sadoq, bir qalqon va bitta qo‘sishimcha ot ajratilgan. Yurish vaqtida har o‘n jangchiga qo‘sishimcha ot ajratilgan. Yurish vaqtida har o‘n jangchi bir chodir, ikki belkurak, bir kerki, bir o‘roq, bir arra, bir tesha, bir bolta, 100 dona nina olgan. “Temur tuzuklari”da ta’kidlanishicha, safar chog‘ida oddiy askarlarning har o‘n sakkiztasiga bitga chodir berilgan. Har bir jangchi ikkita ot, yoy,sovut, qilich, juvoldiz, qop, o‘nta nina, arra va teri xaltaga (chanach) ega bo‘lgan. Sara jangchilarining har beshtasi bir chodirga joylashgan. Ularning har bittasi dubulg‘a, sovut, qilich, o‘q-yoy, sadoq va buyruqda ko‘rsatilgan miqdorda ot bilan ta’minlangan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shularni aytish mumkinki, Amir Temur buyuk lashkarboshi, davlat arbobi edi. U yuksak harbiy daholik va qat’iyatlik bilan o‘z jamiyatiga sidqidildan xizmat qildi. Shu boisdan tarixchilar Amir Temurni Iskandar Zulqarnayn, Yuliy Sezar kabi daholarga qiyos qilib, ular bilan bir safga qo‘yadilar. U yaratgan harbiy san’ati merosi jahon harbiy san’ati merosidan munosib o‘rin oldi va bugungi kunda yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Buyuk bobokalonimiz Amir Temurning hayotiy, harbiy va jismoniy tarbiya sohasidagi tajribalarini chuqr o‘rganish va hayotga tatbiq etish bugungi kunning muhim masalasi bo‘lib qolmoqda.

Chunki uning hayot yo‘li, davlatni boshqarish va harbiy tajribasi kelajak avlod uchun ham saboq bo‘ladi.

Ko‘pchilik tarixiy manbaalarda Amir Temur nomi ayniqsa, Yevropa tomonlarda “Temurlang” deb bayon etilgan vaadolatl shoh sifatida etirof etilib, qilgan ishlaridan minglab misollar keltiriladi. Haqiqatdan ham Amir Temur imperiyasida qonun har qanday vaziyatda ustun qo‘yilgan va inson manfaatlariga xizmat qilgan. Shuni takidlab o‘tish lozimki, qadim-qadim zamonlardan beri turkiy xalqlarning ham oila, mol-mulk, meros, davlat bilan fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirib turuvchi, jinoyat va jazo masalalariga tegishli qonun-qoidalari bo‘lgan. Bu qonunlar yillar mobaynida xalqning milliy mentaliteti, urf-odatlari, axloqiy qarashlari bilan uzviylikda rivojlanib, mukammallahib borgan. Sohibqiron haqidagi turli salbiy fikrlar ham yangraydi, ammo barchasi manbaalarga kelib taqalganda buyuk bobokalonimizning kuch qudrati, saxiyligi, mard va tantiligi yaqqol ko‘rinadi. Shu o‘rinda sohibqironning bu qadar yanglish va yolg‘on tanitilishiga asosiy sabab ikki arab tarixchisi Ibn Arabshoh va Ibn Tag‘riberdining xolis bo‘lmagan fikrlaridir, deb so‘z yuritar ekan, Ahmet Shimshirgil ushbu tarixchilarining o‘z asarlaridagi iddaolarini tahlil qildi, rus olimlaridan V.Bartoldning Amir Temur haqidagi bir yoqlama yondashuvlarini tanqid ostiga olib, kerakli asoslar keltirdi. Ahmet Shimshirgil Amir Temur xaqida aytilgan 4 ta yolg‘onni sharhlab, xolis tahlil qilib berdi.

Amir Temur xaqida uydirligani yolg‘onlar quyidagilar bo‘lib, birinchi yolg‘on Amir Temurning Sivasda 70 ming insonni qatl qilgani, holbuki u davrda Sivas aholisi 15 ming atrofida bo‘lgan; ikkinchisi, Yildirim Boyazidni qafasga solib sharmanda qilgani haqidagi yolg‘on -

aslida Amir Temur Boyazidga podshohlarga xos hurmat ko'rsatgan; uchinchisi, turk hukmdori ayollarining sharmanda qilingani haqidagi yolg'on; to'rtinchisi esa, To'xtamishxonning yengilishi natijasida Rusiyaning kuchayishi haqidagi yolg'on – Rus davlatining kuchayishi Amir Temur tomonidan Oltin O'rданing qulatishiga hech qanday bog'liq emas, deb ko'rsatib berdi.

Yangi turdag'i muntazam armiyaning tashkil etilishi, siyosiy uyushuv, hayotning barcha jabhalari, ayniqsa, iqtisodiyotning g'alaba qozonish yo'lidagi strategik vazifaga bo'ysundirilishi, mustahkam intizom, har bir jangchi tomonidan harbiy harakatlar olib borish qoidalariга rioxanah qilinishi, diplomatik vositalardan ustalik bilan foydalanish kabi omillar raqib ustidan zafaru g'alabani ta'minlagan. Amir Temur o'zining butun hukmronligi davrida biron marta ham mag'lubiyatga uchramagan. Mashhur arab tarixchisi Ibn Arabshoh yozganidek, "Temur qo'rqmas, shijoatli, botir kishilarini itoat qildiruvchan bo'lib, jasoratli (kishi)larni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi⁶". Binobarin, Sohibqironning asosiy maqsadi alohida bo'lgan mulklarni mustahkam va qudratli davlatga birlashtirishdan iborat bo'lgan. Qisqacha aytganda, Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi bilan harbiy ish sohasida ulkan o'zgarishlar yuz bergan, ular Sharqu G'arb harbiy-nazariy tafakkuri taraqqiyotida katta rol o'ynagan. Zero bu shaxsning davlat boshqaruvi va eng muhimi xavfsizlik sohasidagi islohotlari beqiyosdir.

Umuman olganda, jasorat va mardlik,adolat va olivjanoblik bilan dunyoning yarmini egallagan shunday buyuk sarkardamiz borligi bilan har qancha faxrlansak arziydi. Xulosa qilib aytganda, biz boy madaniy merosga ega bo'lgan qadimiy xalqmiz. O'z Vatani tarixini bilish har bir o'sib-unib kelayotgan yosh avlod vakili uchun suv va havodek zarur. Tarixiy xotira insonni ona yurt xizmatiga qat'iy bel bog'lash, uning sarhadlarini har qanday yovuz kuchlardan, animlardan himoyalash, kerak bo'lsa jon fido qilishga chorlaydi. Ushbu asarda keltirilgan fikrlar, mulohazalar, yosh avlod tarbiyasida, uning ma'naviy yetuk, o'z Vatanini ko'z qorachig'iday asraydigan, mard va jasur farzandlar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz zarur. Ildizi baquvvat, tarixiy xotirasi boqiy xalq hech qachon, hech kunga qaram bo'lmaydi.

REFERENCES

1. Sharafuddin Ali Yazdiy. "Zafarnoma", T.: "Kamalak", 1994.
2. "Temur tuzuklari", 1992, 2-bet, 37-bet.
3. "Amir Temurning milliy davlatchilik siyoasti: tarix va hozirgi zamон" mavzuidagi Amir Temur tavalludining 670 yilligiga bag'ishlangan ilmiy konferensiya materiallari. Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti 2006
4. Temur tuzuklari. T.: "G'afur G'ulom" nashriyoti, 1991.
5. Sodiqov H. Amir Temur sultanatida xavfsizlik xizmati. "ART FLEX", Toshkent – 2010
6. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli.
7. T.: "Fan", 1993.
8. Salohiddin Toshkandiyy. "Temurnoma". AmirTemur ko'ragon jangnomasi. Toshkent, 1990. 43-45-betlar.
10. Nizomiddin Shomiy. "Zafarnoma", Toshkent: O'zbekiston, 1996. 99-bet.
11. Ahmedov B. AmirTemur. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1995. 191-bet.
12. Lyusen Keren. "Amir Temur sultanati", Fransuz tilidan B.Ermakov tarjimasi. –T.: "O'zbekiston", 2020

⁶ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. "Fan" nashriyoti, 2018. 56-bet.

13. Pirimqul Qodirov. "Amir Temur siymosi" , Toshkent "O'zbekiston" 2007
Vebsayt
14. <https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/download/6555/5061/5107>
15. <https://n.ziyouz.com/books/tarixiy/Muhammad%20Ali.%20Amir%20Temur%20solnomasi.pdf>
16. https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/4157/12998/65029b696e42e_AMIR%20TEMUR%20E2%80%93%20BUYUK%20SARKARDA.pdf
17. https://uznel.natlib.uz:444/FN/dl_image/upload/userfiles/files/2010_3_A302%20_%20Amir%20Temur%20haqida%20hikoyalar.pdf